

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA

INNAVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



«TASDIQLAYMAN»
Buxoro davlat universiteti

O.X. Xamidov

2026 yil

IKKINCHI VA UNDAN KEYINGI OLIY MA'LUMOT OLIISH BO'YICHA
60530400-GEOGRAFIYA TA'LIM YO'NALISHIGA KIRISH SINOVLARI
DASTURI VA BAHOLASH MEZONI

Buxoro – 2026

Dastur Buxoro davlat universitetining 2026 yil _____dagi ____-sonli
Kengashida ko'rib chiqilgan va maqullangan.

Tuzuvchilar:

M.K.Ergasheva – BuxDU Ekologiya va geografiya kafedrası
dotsenti, g.f.f.d.(PhD)

A.N.Nematov – BuxDU Ekologiya va geografiya kafedrası
katta o'qituvchisi.

Taqrizchilar:

Yu.B.Raxmatov – Navoiy davlat pedagogika instituti g.f.n.,
dotsent

Yo.Q.Hayitov – BuxDU Ekologiya va geografiya kafedrası
professori, g.f.d.

Kafedra mudiri: Xolov Y.D.- BuxDU Ekologiya va geografiya kafedrası
dotsenti, b.f.f.d.(PhD)

1. Kirish

1.1. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni.

Tabiatga inson ta'sirining yildan-yilga ortib borishi, o'z navbatida tabiat qonuniyatlarini chuqur bilishni, shuningdek, tabiat va uning resurslaridan tejab-tergab, oqilona foydalanishni talab etadi. Bu esa geografik bilimlarni chuqur bilishni, tabiatdan foydalanishda ularga amal qilishni taqazo etadi.

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi dunyo tabiati komplekslarining tarkib topishi va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganuvchi fandir. Ushbu fan talabalarga yer kurrasida ro'y beradigan tabiiy jarayon va hodisalarni, geografik tizimlari yoki ularni tashkil qilgan ayrim komponentlar orasidagi o'zaro aloqadorlik va ta'sirni, o'xshash va farq qiluvchi qonuniyatlarni o'rganish bo'yicha bilimlar beradi. Shuningdek, okeanlar va materiklarning rivojlanish tarixi, geologik tuzilishi, relef shakllari, iqlimi, ichki suvlari, tuproqlari, o'simlik va hayvonot olami haqida ko'nikmalarni shakllantirish asosida tabiat va jamiyat orasidagi munosabatlar, inson ta'sirida vujudga kelgan ekologik muammolarni tahlil etish talab etiladi.

Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi o'quv predmetida aholi va xo'jalikni jahon va uning ayrim mintaqalarida, mamlakatlarida joylashish va rivojlanish xususiyatlari haqida bilimlarga ega bo'linadi. Mazkur fanning regional bo'limida talabalar dunyoning turli davlat va hududlarida ro'y berayotgan o'zgarishlar, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, siyosiy jarayonlarning mazmun-mohiyati, sababoqibatlari, qonuniyat va aloqadorliklari, shuningdek globallashuv jarayonlarining mintaqaviy xususiyatlari bo'yicha tegishli bilmi va ko'nikmalarga ega bo'lishlari talab etiladi.

O'tra Osiyo tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi zamonaviy oliy ta'lim geografiya fanining ajralmas bir qismi bo'lib, uning asosiy maqsadi talabalarga respublikamiz va unga qo'shni bo'lgan davlatlarning geografik rivojlanish xususiyatlari, reliefi, iqlimi, suvlari tuproq va landshaftlari, tabiiy-geografik provinsiyalari, tabiiy va mineral xom ashyo salohiyati, aholi va mehnat resurslari, iqtisodiyoti, uning tarmoqlar va hududiy tarkibi, rivojlanish xususiyatlariga doir bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Jahon geografiyasi oliy ta'lim tizimida yuqori malakali geograflar tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Ushbu fan to'rt qismdan iborat bo'lib, u o'z ichiga Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi, Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi, O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi hamda O'rta Osiyo iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini qamrab oladi.

O'zbekiston geografiyasi o'quv kursi Vatanimiz – O'zbekiston tabiiy sharoiti va resurslari, ulardan omilkorlik bilan foydalanish, muhofaza qilish haqida bilimlar berish bilan birga, respublikamiz tabiati va xo'jaligining rivojlanishi qonuniyatlarini tushunib olishga xizmat qiladi. Mazkur o'quv kursi davomida mamlakatimizning tabiati va uning o'ziga xos xususiyatlari, tabiiy va mineral xom ashyo salohiyati, aholi va mehnat

resurslari, xo‘jaligi, uning tarmoqlar va hududiy tuzilishi hamda rivojlanishi masalalari bo‘yicha bilimlarni shakllantiriladi.

“O‘zbekiston tabiiy geografiyasi” umumkasbiy fanlardan bo‘lib, 5-6 semestrlarda o‘qitiladi. Mazkur fanni o‘zlashtirish uchun o‘quv rejasidagi “Umumiy tabiiy geografiya”, “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya”, “Jahon geografiyasi va boshqa fanlardan yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish talab etiladi. Mazkur fandan olingan bilimlar esa o‘quv rejasidagi barcha ixtisoslik fanlaridan mashg‘ulotlarni bajarishda keng qo‘llanilib, bo‘lg‘usi mutaxassislarda ko‘nikma va malaka shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Er shari tabiatining rang-barangligi unda hayot qobig‘i birsferaning mavjudligidadir. Tirik organizmlar tabiiy geografik va sotsial-iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etadi. Hozirgi vaqtga kelib esa, tabiatga inson ta’sirining yildan-yilga ortib borishi natijasida atrof-muhitning ifloslanishi, tirik organizmlarning kundankunga kamayib borishi, turli hayvonlar va hasharotlarning keng areallarga tarqalishi kuzatilmoqda. Bu esa o‘z navbatida tabiatda o‘simlik va hayvonlarning tarqalish qonuniyatlarini chuqur bilishni talab etadi. Biogeografiya fundamental geografik fan bo‘lib, tabiatdan foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish, planetamizdagi o‘simlik va hayvonot dunyosini hisobga olish, uning xilma-xil zaxiralarini o‘rganish va ulardan to‘g‘ri foydalanishni tashkil etishda, nodir o‘simlik va hayvon turlarini asrab qolish biln bog‘liq chora-tadbirlarni belgilash, uni monitoringini ma‘min etishni amalga oshirishda biogeografiyaning boy dalillari, qonuniyatlari muhim manba xizmatini o‘taydi.

Geografiya yo‘nalishi talabalari geografiyaning bevosita amaliyot bilan bog‘liq sohalarida bilimga ega bo‘lishi katta ahamiyatga ega. Amaliy geografiya qishloq xo‘jalik va shaharsozlik maqsadlarida olib boriladigan landshaft tadqiqotlar, muhandis-geografik tadqiqotlar, geografik baholash va geografik prognoz, geoekologik muammolarni tadqiq etish, yer va suv resurslaridan oqiona foydalanish, tabiiy sharoit va resurslarni iqtisodiy jihatdan baholash va prognozlash kabilar bilan shug‘ullanadi.

Amaliy geografiya fani meliorativ tadbirlar va shaharlarning loyihalarini tuzish, sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport va aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarini hududiy tashkil etishning amaliy jihatlari haqida bilimlar beradi. Bu borada har bir geograf hudud xususiyati va imkoniyati muammolari istiqbolli yo‘nalishini chuqur bilishi muhim ahamiyatga ega.

1.2. O‘quv faninig maqsad va vazifasi

Jahon geografiyasi fanini o‘qitishdan maqsad – talabalarga materik va okeanlarning vujudga kelishi, rivojlanishi, tuzilishi, tarkibiy qismlari, reliefi, iqlimi, suvlari, tuproqlari, o‘simliklari va hayvonot dunyosini, landshaftlar, tabiiy komplekslar hosil bo‘lishida ro‘y beradigan hodisalar, jahon mamlakatlari iqtisodiyotining ixtisoslashuvi va rayonlashtirish, mintaqalar iqtisodiyotining tarmoqlar va hududiy tarkibi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlariga, O‘rta Osiyo mintaqasida “tabiataholi-xo‘jalik” tizimi doirasida tabiiy-geografik, geoekologik, ijtimoiy-iqtisodiy

va siyosiy jarayonlarning rivojlanish qonuniyatlari va ularni boshqarish masalalariga oid bilim va ko'nikmalar berishdan iborat.

Fanning vazifasi:

- talabalarga umumiy tabiiy geografik qonuniyatlar, sabab va oqibat bog'lanishi orqali materiklar va okeanlardagi voqea va hodisalarni kelib chiqish xususiyatlari rivojlanish tarixi va inson ta'siridagi o'zgarishlari, dunyo siyosiy kartasining shakllanishi, tabiiy resurslar va ularning jahon mamlakatlari, mintaqalari bo'yicha taqsimlanishi, jahon aholisi va uning joylashuv xususiyatlari, mamlakatlarning geosiyosiy tizimi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko'ra turlarini o'rgatish;
- talabalarga mintaqa rivojlanishining tabiiy-geografik qonuniyatlari, sabab-oqibatlari, geoekologik rivojlanish muammolari haqida;
- O'rta Osiyo davlatlarining tabiati, geografik o'rni, tabiiy sharoiti va tabiiy resurs salohiyati, aholisi, milliy iqtisodiyot taraqqiyotini belgilab beruvchi tarmoqlarni rivojlanishi, davlatlarning o'zaro integratsiya jarayonlarining geografik hihatlarini haqida;
- O'rta Osiyo davlatlarining umumjahon va regional miqyoslarda mehnat taqsimotida tutgan o'rni va ahamiyatini baholash, mintaqa geosiyosiy vaziyati, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy rivojlanish muammolari, davlatlar amalga oshirayotgan bozor islohotlari haqida nazariy va amaliy bilim berish hamda ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

O'zbekiston geografiyasi fanini o'qitishning **maqsadi**– talabalarda O'zbekistonning tabiiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi bo'yicha kompleks bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.

Fanni o'qitishning vazifalari: O'zbekiston tabiatini geografik o'rganish tarixi, O'zbekiston tabiatini shakllantiruvchi eng muhim omillar, mamlakatning tabiiy sharoiti va boyliklaridan xo'jalikni rivojlantirishda foydalanish, xo'jalikni tarmoqlar tarkibi, hududiy tashkil etilishi va rivojlanish qonuniyatlarini o'rgatishdan iborat.

Biogeografiya fanini o'qitishdan maqsad – talabalarda biosfera tarkibida organizmlar va ularning guruhlari o'rtasidagi o'zaro ta'siri va roli, ekologik muhitning yomonlashib borishi natijasida tirik tabiatning o'zgarishini makonda va zamonda ko'rsatib bera olishga doir bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iboratdir.

Fanning vazifasi – talabalarga Er yuzining turli hududlari o'simlik va hayvonot olami jamoalarining evolyutsion kelib chiqishi, shakllanishi, geografik tarqalish qonuniyatlarini, faunistik va floristik tarkibini, biogeografik rayonlashtirish, ularning o'zaro o'xshashlik va farqlarini, bioxilma-xillikni saqlashni o'rgatishdan iborat.

“Biogeografiya” o'quv fani bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba:

- biogeografiya fani haqidagi umumiy tushunchalar; biogeografiyaning rivojlanish tarixi; ekologik omillar; tirik organizmlarning klassifikatsiyasi; areallar va ularning ko'lamini; Er yuzasining floristik va faunistik komplekslari; bioxilma-xillik haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak;

- tirik organizmlarning rivojlanishi va geografik tarqalish qonuniyatlarini; o'simlik va hayvonlarning hayot formalarini floristik va faunistik regionlarning

tavsifini, madaniy o'simliklar va uy tirik oragnizmlarning kelib chiqishini; asosiy biogeografik qonuniyatlar va ularning faoliyat chegaralarini, boisfera va biogeotsenoz komponentlarining o'zaro munosabatlarini aniqlash va ta'riflash, turli taksonomik darajadagi landshaftlarda o'simliklar va hayvonlar turlarini aniqlay olishni; biogeografik tadqiqotlarni tashkil etish hamda turli karta bilan ishlashni bilish va ulardan foydalana olishi kerak;

- biogeografik tadqiqotlarning zamonaviy metodlarini, muayyan hududlar biologik resurslarin baholash, areallarni kartalashtirish, muhofaza qilish choratadbirlarini ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Amaliy geografiya fanini o'qitishdan maqsad – talabalarga geografiyaning bevosita amaliyot bilan bog'liq soxalari haqida bilimlar berishdan iborat.

Fanning vazifasi talabalarga – amaliy geografiyaning asosiy yo'nalishlari va tadqiqot uslublari, aholi va xo'jalik tuzilishini to'g'ri tashkil etish maqsadlarida olib boriladigan tadqiqotarning ilmiy asoslarini, muhandis-geografik va shaharsozlik yo'nalishlarida amaliy geografiyaning usul va uslublari, global, regional va mahalliy ekologik muammolarni yechish yo'llari kabilarni o'rgatishdan iborat.

2. Jahon geografiyasi, O'zbekiston geografiyasi, Biogeografiya, Amaliy geografiya fan dasturining nazariy qismi

Jahon geografiyasi fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

I-qism. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi

Er yuzasining shakllanishi va rivojlanishi

Er va sayyoralarning kelib chiqishi haqidagi tahminlar (gipotezalar). Litosfera plitalari va ularning harakatlari. Rift zonalar. Er yuzasidagi asosiy relef shakllari: geostruktura, geoskulptura haqida tushuncha.

Erda quyosh radiatsiyasining taqsimlanishi. Radiatsiya va issiqlik balansi. Iqlim mintaqalari va ularning hosil bo'lishi. Er yuzasining notekis isishi, past va yuqori bosim oblastlarining hosil bo'lishi, asosiy havo massalari, atmosfera havosining doimiy va mavsumiy harakatlari, past va yuqori bosim markazlari. Iqlim va vegetatsiya. Gidrotermik sharoit va biomassa miqdori haqida tushuncha. Bioxilma xillik. Okeandagi geografik mintaqalar va ularning quruqlikdagi geografik mintaqalar bilan o'xshashligi va tafovutlari. Sektorlik va uning hosil bo'lishi. Okeanbo'yi va ichki quruqlik sektorlari. Tabiat zonalar va ularning kelib chiqishi. quruqlikda geografik zonallikning namoyon bo'lishining umumsayyoraviy ko'rinishi (modeli). Iqlim o'zgarishi, uni oldini olishga qaratilgan harakatlar, Kito protokoli.

Quruqlikdagi tabiat zonalar

Quruqlikdagi tabiat zonalarining geografik mintaqalar bo'yicha ta'rifi. Ekvatorial mintaq. Tabiat zonalar: doimiy yashil sernam va nam o'rmonlar (gileya); doimiy yashil, bargini to'kadigan o'rmonlar. Subekvatorial mintaq. Tabiat zonalar: quruq savanna, siyrak o'rmon va butalar; nam va mo'tadil nam savanna va siyrak o'rmonlar; bargini to'kuvchi mo'tadil nam va quruq o'rmonlar; doimiy yashil yarimquruq o'rmon

va butazorlar; nam va mo‘‘tadil nam yashil o‘rmonlar; nam va mo‘‘tadil nam doimiy yashil o‘rmonlar. Tropik mintaqa. Tabiat zonalari: doimiy yashil nam o‘rmonlar; yarim doimiy yashil mavsumiy nam o‘rmonlar; savanna, siyrak o‘rmon va butazorlar; chalacho‘l; cho‘l. Subtropik mintaqa. Tabiat zonalari; o‘tloq dasht va preriyalar; dasht; yozi nam siyrak o‘rmon va butazorlar; cho‘l; chala cho‘l; o‘rta dengiz bo‘yi tipidagi o‘rmon va butazorlar; yarim doimiy yashil keng bargli o‘rmonlar; doimiy va yarim yashil aralash o‘rmonlar, igna bargli o‘rmonlar. Mo‘‘tadil mintaqa. Tabiat zonalari: chalacho‘l va cho‘l; cho‘lacho‘l; dasht; o‘rmondasht va preriyalar; keng bargli o‘rmonlar; aralash o‘rmonlar; igna bargli o‘rmonlar; okean bo‘yi o‘tloqlari va sirak o‘rmonlar. Subarktika va subantraktika mintaqalari. Tabiat zonalari: tundra; o‘rmon-tundra. Arktika va antraktika mintaqalari. Tabiat zonalari: muz sahrolari; tundra.

Balandlik mintaqalari. Hosil bo‘lishining asosiy sabablari. Balandlik mintaqalarining joylashishidagi asosiy qonuniyatlar. Balandlik va kenglik mintaqalari orasidagi farqlar va o‘xshashliklar, har bir geografik mintaqalardagi balandlik mintaqalarining ta’rifi.

Qutbiy nomutanosiblik (assimetriya) va geografik qobiq rivojlanishining davriyligi. Termik ekvator, subtropik maksimumlarning joylanishi. Geografik mintaqalarning 4-5^o shimolga siljish sabablari. Davriylik.

Tabiat zonalarining shakllanish tarixi, ularning tabaqalanish sabablari. Bo‘r davridan boshlab hozirgacha tabiat zonalarining rivojlanishi. Muz bosish davrlarida tabiat zonalarining joylashishdagi o‘zgarishlar. Paleolit, mezolit, neolit, bronza, temir va hozirgi davrda insoniyatning tabiatga ta’siri.

Er yuzasining inson tomonidan o‘zlashtirilishi va tabiiy landshaftlarning o‘zgarishi. Tabiatdan foydalanishda, uni muhofaza qilishda inson xo‘jalik faoliyatining ahamiyati. Madaniy landshaftlar. Landshaftlarni o‘zgarish darajasiga qarab guruhlariga ajratish.

Er yuzasini tabiiy geografik rayonlashtirish. Tipologik va individual-regional rayonlashtirish birliklari.

Okeanlar tabiiy geografiyasi

Kirish. Okeanlar tabiiy geografiyasining maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqasi. Dunyo okeani tushunchasi. Dunyo okeani tabiatining asosiy xususiyatlari.

Okeanning birlamchiligi, ikkilamchiligi va litosfera plitalari tektonikasi nazariyalari. Okean tagi relefining asosiy shakllari, okean tagi yotqiziqlari.

Dunyo okeanining iqlimi va suv massalari. Iqlim hosil qiluvchi omillar. Doimiy va mavsumiy past va baland atmosfera bosimi markazlari, doimiy shamollar. Suvning sho‘rligi va harorati. Suv massalari va ularning harakati. Okeandagi hayot. Okean mavjudotlarining geologik faoliyati. Dunyo okeani biotsenozlari va biogeografik oblastlari.

Dunyo okeanining geografik mintaqalari. Suv yuzasidagi va okean tubidagi geografik mintaqalar. Okean tabiatini muhofaza qilish.

Regional birliklari: Tinch, Atlantika, Hind va Shimoliy Muz okeani. Okeanlarga umumiy tabiiy geografik ta'rif.

Materiklar tabiiy geografiyasi Evrosiyo

Materiklar, qit'alar, orollar, yarimorollar, okeanlar, dengizlar, qo'ltiqlar va bo'g'ozlar haqida umumiy tushuncha. Evrosiyaning asosiy xususiyatlari (maydonining kattaligi, shimoldan janubga cho'zilganligi va shimoliy yarim shardagi hamma geografik mintaqalarning namoyon bo'lganligi. Evropa qit'asining geologik tuzilishi va reliefi. Evropa qit'asining iqlim hosil qiluvchi omillari. Iqlim mintaqalari va tabiat zonalari. Ichki suvlari (daryolari, ko'llari, yer osti suvlari). Evropa tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi. Evropaning yirik regional tabiiy geografik o'lkalari. Shimoliy Evropa, Markaziy Evropa, Janubiy Evropa, Sharqiy Evropa. Osiyaning geologik tuzilishi va reliefi. Relief shakllarining xilma-xilligi. Osiyaning iqlimi va tabiat zonalari. Osiyo tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi. Yirik tabiiy geografik o'lkalari: G'arbiy Sibir, Sharqiy Sibir, Uzoq Sharq, Sharqiy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo, Markaziy Osiyo, O'rta Osiyo, Janubiy Osiyo, Janubi-g'arbiy Osiyo, Old Osiyo.

Reliefning juda xilma-xilligi, quruqlikning eng baland va past nuqtalarining shu materikda joylashganligi va h.k.). Siyosiy xaritasi va asosiy xalqlari. Materikning shakllanish tarixi. Qadimgi platformalar, kaledon, gersin va alp burmalanish bosqichlarida hosil bo'lgan geologik tuzilmalar va ularning relefda aks etishi. Reliefning asosiy shakllari. Vulqonli oblastlar. Foydali qazilmalari. Iqlimini hosil qiluvchi omillar. Ichki suvlari. Evrosiyaning tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi. Geografik mintaqalari va tabiat zonalari. Evrosiyaning yirik regional tabiiy geografik o'lkalari: Shimoliy Evropa, Markaziy Evropa, Janubiy Evropa, Sharqiy Evropa, g'arbiy Sibir, Sharqiy Sibir, Uzoq Sharq, Sharqiy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo, Markaziy Osiyo, O'rta Osiyo, Janubiy Osiyo, Janubi-g'arbiy Osiyo, Old Osiyo. Yirik regional tabiiy geografik o'lkalarning kichik tabiiy geografik o'lkalarga ajratilishi. Shimoliy Evropa: Fennoskandiya, Islandiya, O'rta Evropa yoki Germaniya-Polsha tekisliklari, Gersin Evropasi va Britaniya orollari tabiiy geografik o'lkalari. Har bir regional tabiiy geografik o'lkaning umumiy tabiiy geografik tasnifi: geografik o'rni, tektonikasi va geologik tuzilishi, foydali qazilmalari va reliefi, iqlimi, ichki suvlari, tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi, tabiatiga inson faoliyatining ta'siri.

Shimoliy Amerika

Tabiiy geografik xususiyatlari. Shakllanish tarixi. Materikning tarkib topishidagi asosiy bosqichlar. Shimoliy Amerika platformasi, kaledon, gersin, kimmeriy, laramiy va alp burmalanishi oblastlari va ularning relefda aks etishi. Foydali qazilmalarini joylanish qonuniyatlari va ulardan foydalanish darajasi. To'rtlamchi davr muzliklarining relief shakllarini hosil bo'lishidagi ahamiyati. Asosiy relief shakllari.

Iqlimi. Iqlimini hosil qiluvchi omillar. Atrofidagi okeanlarning materik iqlimiga ta'siri. Iqlimni fasllar bo'yicha almashinishi. Iqlim mintaqalari va ularning ta'rifi. Ichki suvlari. Daryo turlari, yirik daryolar ta'rifi. Ko'llar va ularning kelib chiqishi. Suv resurslari.

O'simligi, tuproqlari va hayvonot dunyosi. O'simliklarining kelib chiqish markazlari va hozirgi o'simlik qoplamining shakllanish tarixi. Tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosining tarqalish qonuniyatlari. O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish masalalari. Milliy bog'lar, qo'riqxonalar va alohida qo'riqlanadigan joylar.

Geografik mintaqalar va tabiat zonalari, ularning joylanishining o'ziga xos xususiyatlari. Kordilera tog'laridagi balandlik mintaqalari. Landshaftlar va ularning inson tomonidan o'zlashtirilishi. Yirik regional tabiiy geografik o'lkalari: Kordilera tog'lari, Kordilera tog'laridan tashqaridagi sharq. Kordilera tog'laridan tashqaridagi sharq quyidagi kichik regional o'lkalarga ajratiladi: Grenlandiya, Kanada-Arktika to'plam orollari, Lavrentiya qirlari, Markaziy tekisliklar, Buyuk tekisliklar, Appalachi tog'lari, qirg'oq bo'yi tekisliklari. Kordilera tog'lari quyidagi kichik o'lkalarga ajratiladi: Alyaska Kordilerasi, Kanada Kordilerasi, Janubiy Kordilera, Meksika tog'ligi. Ularning umumiy tabiiy geografik tavsifi Evrosiyo o'lkalari uchun qabul qilingan tartibda amalga oshiriladi. Markaziy Amerika.

Janubiy Amerika

Geografik joylanishi, qiyofasi, o'lchamlari va tabiatining asosiy xususiyatlari, Shimoliy Amerika materigi bilan o'xshashligi va farqlari.

Shakllanish tarixi, reliefi va foydali qazilmalari. Janubiy Amerika platformasi, kaledon, gersin, mezozoy va alp burmalanish oblastlari. Sharqiy qismidagi yassi tog'lar va tekislik, pasttekisliklar. And burmalanish oblasti. Iqlimi. Iqlimini hosil qiluvchi omillar. Atrofidagi okeanlarning iqlimga ta'siri. (Peru va El-Nino oqimlari) Iqlimning fasllar bo'yicha almashinishi. Iqlim mintaqalari va ularning ta'rifi. Ichki suvlari. Asosiy daryolari, ularning ta'rifi. Ko'llari. Suv resurslari.

Tuproq, o'simlik qoplamini va hayvonot dunyosining asosiy xususiyatlari. Zoogeografik oblastlari. Geografik mintaqalari va zonalari. Gileylar va gemigileylar. And tog'laridagi mintaqalar.

Yirik regional tabiiy geografik o'lkalari: And tog'lari, And tog'laridan tashqaridagi sharq. And tog'laridan tashqaridagi sharq quyidagi kichik tabiiy geografik o'lkalarga ajratiladi: Lianos-Orinoko, Gviana yassi tog'ligi, Amazoniya, Braziliya yassi tog'ligi, Ichki tekisliklar, Kordilera oldi va Serra pampasi. And tog'lari quyidagi kichik o'lkalarga ajratiladi: Shimoliy And, Markaziy And, Subtropik And va Patagoniya And tog'lari. Ularning umumiy tabiiy geografik tasnifi.

Afrika

Materik geografik o'rnining asosiy xususiyatlari. Shakllanish tarixi, reliefi va foydali qazilmalari. Afrika platformasi va uning relefda aks etganligi. Baland va past Afrika. Shimoliy Afrika cho'llari. Buyuk Afrika yoriqlari. Paleozoy va Alp burmalanish oblastlari va ularning relefda aks etishi. Rudali foydali qazilmalarning baland Afrikada, neft, gaz, fosforit konlarining past Afrikada joylashganligi.

Iqlimi. Iqlimini hosil qiluvchi asosiy omillar. Yoz va qish fasllarida harorat, namlik va yog'inning taqsimlanishi. Iqlim mintaqalarining takrorlanishi (ekvatorial mintaqadan tashqari). Faunistik oblastlari, hayvonot dunyosining o'ziga xos

xususiyatlari. Tuproqlari va ularning hosil bo'lish jarayoni. Cho'llanish muammosi va uni yechish yo'llari. Asosiy qo'riqxonalari. Geografik mintaqalari va tabiat zonalari, ularning tavsifi.

Yirik regional tabiiy geografik o'lkalari: Past Afrika, Baland Afrika. Past Afrika quyidagi kichik tabiiy geografik o'lkalarga ajratiladi: Atlas tog'lari; Sahroi Kabir; Sudan-Gvineya; Kongo botig'i. Baland Afrika quyidagi kichik tabiiy geografik o'lkalarga ajratiladi: Sharqiy Afrika; Efiopiya-Somali; Janubiy Afrika. Ularning umumiy tabiiy geografik tasnifi.

Avstraliya va Yangi Zelandiya

Janubiy yarim sharda joylashganligi, o'lchamlari, o'ziga xos xususiyatlari. Tarkib topish tarixi, relefi va foydali qazilmalari. Avstraliya platformasining tuzilishi va uni relefda aks etganligi (g'arbiy Avstraliya yassi tog'ligi, Markaziy tekislik), paleozoy burmalanish mintaqasi (Sharqiy Avstraliya tog'lari). Hozirgi vaqtdagi relef hosil qiluvchi omillar. Rudali foydali qazilmalar, oltin mintaqasi, neft-gaz va ko'mir havzalari.

Iqlimi va ichki suvlari. Iqlimini hosil qiluvchi omillar. Namlik va yog'inni taqsimlanishi. Iqlim mintaqalari. Daryolari. "Kriklar", sho'r ko'llar, yer osti suvlari (artezian havzalari).

Geografik mintaqalari va tabiat zonalari. Regional tabiiy geografik o'lkalari: g'arbiy Avstraliya, Markaziy tekislik va Sharqiy Avstraliya tog'lari. Yangi Zelandiya: Shimoliy va Janubiy orollar. Ularning umumiy tabiiy geografik tasnifi.

Okeaniya

Geografik joylanishi. Tabiatning asosiy xususiyatlari. Okean ta'siridagi landshaftlarning keng tarqalganligi. Geologik tuzilish va relefi. Mezozoy va kaynozoy burmalanish mintaqalari va janubi-g'arbiy Okeaniya orollarining hosil bo'lishi. Vulqonlar otilishi. Mikroneziya va Polineziya orollarining hosil bo'lishi. Tropik mintaqalarda okean sathining o'zgarishi va marjon orollarining hosil bo'lishi. Asosiy relef shakllari. Foydali qazilmalari.

Iqlimi va ichki suvlari. Havo massalari va ularning harakati, harorat, yog'inlar, tropik siklonlar. Daryolari va ularning asosiy xususiyati (kaltaligi, asosan yomg'irdan to'yinishi, sharshara va ostonalarning ko'pligi va h.k.). Ko'llari, yer osti suvlari.

Tuproq-o'simlik qoplamini va hayvonot dunyosi. Tuproqlarning, o'simliklarning asosiy turlari. Nam tropik mangra o'rmonlari, savannalari. Hayvonot dunyosining o'ziga xos xususiyatlari.

Tabiiy geografik o'lkalari: Melaneziya, Mikroneziya, Polineziya, Yangi Zelandiya. Ularning umumiy tabiiy geografik tasnifi qabul qilingan tartibda amalga oshiriladi.

Antarktida

Qutb doirasi ichida joylashgan yagona materik ekanligi. Tabiatining asosiy qirralari, o'lchamlari. shakllanish tarixi. Muz usti va osti relefi. Muzning qalinligi, muzning turlari. Shelf muzliklari. "Vohalar". Iqlimining o'ziga xos xususiyatlari.

O'simlik va hayvonot dunyosi. G'arbiy Antraktida, Sharqiy Antraktida. Ularning umumiy tabiiy geografik tasnifi.

II-Qism. Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi

Dunyoning hozirgi zamon siyosiy xaritasi, jahon mamlakatlarining sotsialiqtisodiy guruhlar

Dunyoning siyosiy xaritasi va uning shakllanish xususiyatlari. Jahon mamlakatlarining umumiy ta'rifi, hududi va aholi soni. Mamlakatlarning davlat tuzumi. YaIM bo'yicha mamlakatlar tavsifi. Davlatlarning tiplari. O'tish iqtisodiyoti, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar. Anklav va eksklav mamlakatlar.

Jahon tabiiy resurslari geografiyasi. Ekologik muammolar

Jahon tabiiy resurslarining turlari. Agroiqlim resurslari. Er-suv resurslari. Gidroenergetika resurslari. Foydali qazilmalar geografiyasi. Dunyo okeani resurslari. Tabiat-jamiatning o'zaro ta'siri va uning oqibatlari. Jahon va uning mintaqalarida geoekologik muammolar.

Jahon aholisi

Jahon aholisi soni va o'sishi. Aholi zichligi va joylashuvi. Aholi takror barpo bo'lishi. «Demografik portlash» va uning oqibatlari. Dunyo mintaqalarida demografik o'tish davrining xususiyatlari. Dunyoning turli mintaqalaridagi asosiy demografik ko'rsatkichlar. BMTning demografik prognozi. Zamonaviy xalqaro migratsiya va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri. Mehnat resurslari, ishsizlik muammosi va ularning regional xususiyatlari.

Jahon urbanizatsiyasi

Urbanizatsiya va unga ta'sir etuvchi omillar. Shahar va qishloq aholisi. Jahon urbanizatsiyasining mintaqaviy xususiyatlari. Suburbanizatsiya. Dunyoviy shaharlar, yirik aglomeratsiyalar, megalopolislar. Poytaxt shaharlar va ularning iqtisodiy salohiyati.

Xalqaro mehnat taqsimoti va unga ta'sir etuvchi omillar

Xalqaro mehnat taqsimotining shakllanishi. Hududiy mehnat taqsimoti. Xalqaro va rayonlararo mehnat taqsimoti. Adam Smitning mutlaq afzallik nazariyasi. David Rikardoning nisbiy (qiyosiy) qulaylik qonuni. Xalqaro mehnat taqsimoti va jahon xo'jaligining shakllanishi. Xalqaro mehnat taqsimoti va uning omillari.

Jahon xo'jaligi

Jahon xo'jaligi va uning tarmoqlar tarkibi. Jahon xo'jaligining shakllanish va rivojlanish bosqichlari. Evropa mamlakatlari iqtisodiyotining rivojlanishi. Manufakturaning yuzaga kelishi. Buyuk geografik kashfiyotlar.

Eng muhim texnik kashfiyotlar. Evropa va Shimoliy Amerika mamlakatlaridagi sanoat inqilobining dunyo mintaqalari iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri. Mustamlaka tuzumi.

Hozirgi zamon rivojlanayotgan mamlakatlari iqtisodiyotining yuqori su'atda o'sishiga ta'sir etuvchi omillar.

Jahon sanoati

Sanoatni hududiy tashkil etish omillari. Xomashyo, energetika, mehnat resurslari, transport va ekologik omillar. Jahon sanoatining tarmoqlar tarkibi. Yoqilg'i sanoati va uning tarmoqlari. Ko'mir sanoati geografiyasi. Jahon neft zahirasi va uni qazib olish. Gaz sanoati. Jahon energetika sanoati. Jahonda elektroenergiya ishlab chiqarish. Qora va rangli metallurgiya. Po'lat ishlab chiqarish va eksport qilish. Jahon mashinasozligi. Rivojlangan mamlakatlarda fantalab mashinasozlik sanoatining mujassamlashuvi. Avtomobilsozlik. Kimyo sanoati. O'rmon sanoati. Engil sanoat. Oziq-ovqat sanoati. Jahon sanoatining hududiy tarkibi va rivojlanishidagi o'zgarishlar.

Jahon qishloq xo'jaligi

Jahon qishloq xo'jaligi va uning tarmoqlar tarkibi. Dehqonchilik: donli ekinlar, texnika ekinlari, moyli ekinlar, sabzavotchilik, bog'dorchilik va uzumchilik.

Chorvachilik. Qoramolchilik. Cho'chqachilik. Qo'ychilik. Parrandachilik va boshqalar.

Fan-texnika inqilobining jahon qishloq xo'jaligiga ta'siri. Intensiv va ekstensiv qishloq xo'jaligi. Global oziq-ovqat muammosi.

Jahon transporti

Transportning turlari. Mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarda transportning tutgan o'rni. Jahon transportining yuk tashish tarkibi. Dengiz transporti. Globallashuv jarayonlari va unda transportning ahamiyati. O'zbekiston transporti

Xalqaro iqtisodiy integratsiya va globallashuv jarayonlari

Xalqaro iqtisodiy integratsiya. Integratsiya va globallashuv jarayonlari. Xalqaro iqtisodiy aloqalarning turlari. Erkin iqtisodiy zonalar. Integratsiya birlashmalarida O'zbekistonning ishtiroki. Transmilliy kompaniyalar geografiyasi. Dunyoning yirik iqtisodiy-ijtimoiy va geosiyosiy mintaqalari.

Jahonning regional tafsifi Evropa mamlakatlari

Evropa siyosiy xaritasi, uning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni. Subregionlari. Yirik davlatlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. G'arbiy Evropa aholisi. Shimoliy Evropa mamlakatlari. Evropaning O'rtadengizbo'yi davlatlari.

Germaniya. Iqtisodiy geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari. Aholisi va mehnatda bandlik. Iqtisodiyoti. Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari. Birlashgan Germaniyaning iqtisodiy rivojlanish muammolari va istiqbollari. Ichki tafovutlari.

Buyuk Britaniya. Iqtisodiy geografik o'rni, tabiiy sharoiti va mineral resurslari. Ularning mamlakat xo'jaligini rivojlantirishdagi ahamiyati. Sanoatining rivojlangan tarmoqlari. Qishloq xo'jaligi. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Fransiya. Mineral resurslarini xo'jalikda tutgan o'rni. Aholisi va mehnat resurslari. Sanoat ishlab chiqarishining ixtisoslashuvi va hududiy tarkibi xususiyatlari. Fransiya va O'zbekiston iqtisodiy munosabatlari.

Italiya. Iqtisodiy geografik o'rnining o'ziga xosligi. Aholisi va mehnat resurslari. Iqtisodiyoti. Turizmni mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati. Ichki tafovutlari. O'zbekiston - Italiya hamkorligi.

MDH va Sharqiy Evropa davlatlari

Sharqiy Evropaning o'tish iqtisodiyoti davlatlari. Tabiiy, mineral xomashyo, demografik, geosiyosiy, transport-kommunikatsiya va ishlab chiqarish salohiyati. Ukraina. Moldaviya. Belorussiya mamlakatlari. Rossiyaga iqtisodiy geografik tavsif. O'zbekistonga qo'shni MDH tarkibidagi mamlakatlar: Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston. Janubiy Kavkaz davlatlari (Zakavkazya). Ozarbayjon. Armaniston.

Osiyo mamlakatlari

Sharqiy Osiyoning rivojlangan davlatlari. Yaponiyaning jahon ilmiy-texnika taraqqiyotida tutgan o'rni. Yaponiyaning iqtisodiy tajribasi. Zamonaviy yaponiya Osiyo mo'jizasi. Osiyo Janubiy Koreyaning iqtisodiy rivojlanishi. Xitoy iqtisodiyoti.

Janubiy-sharqiy Osiyo davlatlari. Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari madaniy geografiyasi. Indoneziya. Osiyoning yangi industrial mamlakatlari.

Janubiy Osiyo. Hindiston. Iqtisodiy geografik o'rni va tabiiy resurslari. Aholisi. Xo'jaligi. O'zbekistonning Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi.

Shimoliy Amerika davlatlari

AQSh. Iqtisodiy geografik o'rni. Sanoat tarmoqlari va ularning joylashuvi. Qishloq xo'jaligi. Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari. Iqtisodiy rayonlari. AQSh-O'zbekiston hamkorligi.

Kanada. Iqtisodiy geografik o'rni va tabiiy resurslari. Aholisi. Mamlakat xo'jaligida o'rmon va yog'ochsozlik sanoatining ahamiyati. Qishloq ho'jaligi. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Lotin Amerika davlatlari

Tabiiy resurslari. Aholisi. Zamonaviy Lotin Amerikasi davlatlari iqtisodiyotining rivojlanishi. Braziliya. Iqtisodiy geografik o'rni va tabiiy resurslari. Aholisi va xo'jaligi. Ichki tafovutlari.

Afrika davlatlari

Shimoliy Afrika davlatlari. Misr, Jazoir. Iqtisodiy geografik o'rni va tabiiy resurslari. Aholisi. Mintaqa iqtisodiyotining tarmoqlar va hududiy tarkibi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanish xususiyatlari.

Tropik Afrika davlatlari. Iqtisodiy geografik o'rni va tabiiy resurslari. Aholisi. Xo'jaligi. Agrar soha va uning hududiy tashkil etilishi. Rivojlanish muammolari.

Janubiy Afrika davlatlari. JAR. Xo'jaligidagi yetakchi tarmoqlar. Rangdor va nodir metallar. Foydali qazilmalarning xo'jalikni rivojlantirishdagi ahamiyati.

Avstraliya va Okeaniya

Avstraliya davlatining makroiqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari. Xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o'rni. Xo'jaligidagi o'ziga xos xususiyatlar. Sanoatining asosiy tarmoqlari. Qishloq xo'jaligi. Chorvachilik. Yangi Zelandiya.

Okeaniya davlatlari rivojlanishining asosiy muammolari. Global isish va dunyo okeani sathining ko'tarilishi xavfi.

III-qism. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi

Kirish

O'rta Osiyo tabiiy geografiya kursining maqsad va vazifalari, ob'ekti, predmeti, boshqa fanlar bilan aloqalari. Regional tabiiy geografiyaning geografik fanlar tizimidagi o'rni.

O'rta Osiyo tabiiy geografik o'lkasining hududiy qamrovi va o'ziga xos xususiyatlari

O'rta Osiyo tabiiy geografik o'lkasining geografik o'rni, maydoni va chegaralari. Yondosh tabiiy geografik o'lkalar, ularning O'rta Osiyo bilan aloqadorligi, tabiatining o'xshash tomonlari va tavofutlari. O'lka tabiatining o'ziga xos xususiyatlari.

O'rta Osiyoni tabiiy geografik o'rganish bosqichlari

Ayrim olimlarning va yetakchi ilmiy maktablarning O'rta Osiyo tabiatini o'rganishga qo'shgan hissasi. O'rta Osiyoni tabiiy-geografik o'rganilganligini baholash.

O'rta Osiyoning geologik tuzilishi, geologik taraqqiyot tarixi

O'rta Osiyo hududidagi asosiy tektonik strukturalar. O'rta Osiyo hududining geologik tuzilishi tarixi. Neogen-to'rtlamchi davrgacha bo'lgan geologik tarixiga qisqa tavsif. Paleozoy, mezozoy va kaynazoy davrlarining paleogeografik rivojlanish tarixi. O'rta Osiyo hududida bo'lib o'tgan asosiy tog' paydo bo'lish (burmalanish) bosqichlari (Kaledon, Gersin, Alp, yangi tektonik harakatlar). Paleozoy, mezozoy va kaynazoy davrlari cho'kindi, otqindi va metamorfik tog' jinslariga qisqa tavsif, ularning tarqalishi, yotqizish sharoitlari, qalinligi, litologik tarkibi. Foydali qazilma konlarining tarqalishi.

O'rta Osiyo hududining neogen-to'rtlamchi davrdagi geologik rivojlanish tarixi. Bu davrda sodir bo'lgan muhim paleogeografik voqealar va jarayonlar (yangi tektonik harakatlar, iqlim o'zgarishi, qadimgi muzliklarning vujudga kelishi, lyosslarning hosil bo'lishi, Kaspiy dengizi transgressiyalari, daryolar yo'nalishining o'zgarishi).

O'rta Osiyo hududi Er yuzasining tuzilish

O'rta Osiyo hududi yer yuzasining xilma-xilligi va tabiiy geografik komponentlar bilan bog'liqligi. O'rta Osiyo relefining tarkib topishida yangi tektonik harakatlar, qadimgi va hozirgi zamaon muzliklari, eol, erozion va boshqa denudatsion va akkumulyativ jarayonlarning ahamiyati.

O'rta Osiyoning tog'li qismidagi tog' tizmalari, tog' oralig'i botiqlari, tekislangan yuzalar, ularning geografik joylanishi, dengiz sathidan balandligi, muhim cho'qqilari. O'rta Osiyoning tog'li qismidagi asosiy balanlik relef mintaqalari va ularga xos relef shakllari (muzlik, erozion, denudatsion, gravitatsion, karst va boshqalar). Markaziy Qozog'iston past tog'liklari, uning hududidagi tog' tizmalari, qirlar, denudatsion va akkumulyativ tekisliklar, melkosopochniklar. Turon tekisligi, uning hududidagi toh tizmalari, qirlar, platolar, botiqlar, qum massivlari, tog' oldi prolyuvial tekisliklari, allyuvial tekisliklar va pasttekisliklar, dengiz pasttekisliklari, deltalar, taqirlar, sho'rxoklar, qadimgi daryo o'zanlari, karst relef shakllari va boshqalar. Ularning tarqalishi va hosil bo'lishi.

O'rta Osiyo iqlimi

O'rta Osiyo iqlimining umumiy tavsifi iqlim hosil qiluvchi omillari: geografik o'rni va u bilan bog'liq quyosh radiatsiyasi, atmosfera sirkulyatsiyasi (havo masalarining turlari va ularning almashinib turishi), yer yuzasining tuzilishi va holati, inson xo'jalik faoliyatining ta'siri. Iqlim elementlarining hududiy va mavsumiy taqsimlanishi. Yillik, yanvar va iyul izotermalarining joylashish xususiyatlari va ularga tavsif berish. Yog'inlar va ularning hududiy taqsimlanish qonuniyatlari. Qor qoplami va erimay turish davrining hudud bo'ylab o'zgarib borishi. Mutlaq va nisbiy namliklar, ularning haroratga bog'liq ravishda o'zgarishi. Bug'lanish va mumkin bo'lgan bug'lanish. O'rta Osiyo iqlimidagi tavofutlari. Iqlimiy va agroiqlimiy rayonlashtirish. Iqlimning o'zgarishi. Iqlimga inson xo'jalik faoliyatining ta'siri. Iqlimni xo'jalik nuqtai nazaridan baholash.

O'rta Osiyoning ichki suvlari

O'rta Osiyo ichki suvlarining tabiatning boshqa komponentlariga (iqlimi, yer yuzasining tuzilishi va boshqalar) bog'liqligi va hududiy joylanish qonuniyatlari. Ichki suvlarining taqsimlanishiga inson xo'jalik faoliyatining ta'siri.

Daryolari, ularning mustaqil havzalarga ajralishi. Daryolarning zichligi va oqimi. Daryolar oqimining hududiy va mavsumiy o'zgarishi, daryo havzalari bo'yisa taqsimlanishi. Daryolarning to'yinishi va rejimi bo'yicha guruhlariga bo'linishi va ularning tasnifi. Daryolarning xo'jalikdagi ahamiyati. Daryolar suvini ifloslovchi manbalar va ularning muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlar.

Ko'llari, ularning hudud bo'ylab tarqalishi, botiqlarning kelib chiqishi jihatidan guruhlariga (tektonik, to'g'on, muzlik, karst, antropogen) bo'linishi. Ko'llarning xo'jalikdagi ahamiyati va ularni muhofaza qilish. Kaspiy va Orol dengizi, Balxash ko'li, ularning muammolari.

Er osti suvlari, ularning hosil bo'lishi va tarqalish qonuniyatlari. Er osti suvlarining asosiy turlari (grunt, qatlamlararo, karst). Artezian havzalari, ularning tarqalishida hududning tektonik tuzilishining ahamiyati. Mineral va termal suvlari, ulardan foydalanish. Er osti suvlaridan xalq xo'jaliklarining turli tarmoqlarida foydalanish va muhofaza qilish.

Hozirgi zamon muzliklari, ularning hududiy tarqalishi. Atmosfera havosining ifloslanishi ta'sirida muzliklarning erish jarayonining tezlashuvi va uni oldini olish muammolari.

O'rta Osiyo hududida barpo etilgan suv omborlari va kanallari, ularning tabiatga ta'siri va xalq xo'jaligidagi ahamiyati. Kaspiy va Orol dengizlari muammolari.

O'rta Osiyoning tuproq qoplami

O'rta Osiyo hududida tuproq qatlamining hosil bo'lishi va tarqalishining ona jins, iqlim, relef, yer osti suvlari, o'simliklari bilan bog'liqligi. Tuproqning gorizontal, vertikal va intrazonal tarqalishi va asosiy xususiyatlari. O'rta Osiyo tekislik, tog' oldi va tog' qismlaridagi asosiy tuproq turlari va ularning tavsifi. Tuproqlarni muhofaza qilish chora-tadbirlari va oqilona foydalanish. Cho'l haqidagi ta'limotning yaratilishi va O'rta Osiyo cho'llarining zonal hamda litologik tiplari. Cho'llanish.

O'rta Osiyoning o'simlik qoplami

O'rta Osiyo o'simliklarining xilma-xilligi. Ularning relef, iqlim, tuproq qoplami va boshqa tabiiy geografik komponentlariga bog'liq holda hududiy tarqalishi. O'simliklarning asosiy turlari, ularning gorizontal, vertikal va intrazonal tarqalishi. Dasht chala cho'l, cho'l o'simliklari. O'simlik boyliklari, ularning inson xo'jalik faoliyati ta'sirida o'zgarishi. O'simlik boyliklaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish.

O'rta Osiyoning hayvonot dunyosi va maxsus muhofaza qilinadigan hududlari

O'rta Osiyo hayvonot dunyosining xilma-xilligi va hayvonlarning hudud tabiiy sharoitiga moslashuvi. Hayvonlarning asosiy turlari va ularning tabiat komponentlariga (relef, iqlim, substrat va boshqalar) bog'liq holda gorizontal, vertikal va intrazonallik bo'yicha o'zgarishi. Hayvonlarga inson ta'siri. Hayvonlarning xo'jalikdagi ahamiyati va ularni muhofaza qilish.

O'rta Osiyo tabiatini muhofaza qilishda qo'riqxonalar, xalq (milliy) bog'lari va buyurtmaxonalar, jamoat tashkilotlari, ekologik ta'lim va tarbiyaning ahamiyati. O'rta Osiyo hududida bapo etilgan qo'riqxonalar, xalq (milliy) bog'lari, buyurtmaxonalar, ularning turlari, ularda olib borilayotgan ilmiy va muhofaza ishlari.

O'rta Osiyoni tabiiy geografik rayonlashtirish.

O'rta Osiyoni tabiiy geografik rayonlashtirish tajribalari tahlili. O'rta Osiyoni tabiiy geografik rayonlashtirish tamoyillari va taksonomik birliklari (provinsiya, kichik provinsiya, okrug, rayon).

Markaziy Qozog‘iston provinsiyasi

Umumiy tavsif. Geografik va tabiiy geografik o‘rni, chegaralari, maydoni. Geologik tarixi. Tektonikasi va u bilan hozirgi orografik tuzilishining bog‘liqligi. Paleogeografiyasi. Pleystotsen. Orografiya. Geomorfologik tuzilishi. Iqlimining xususiyatlari. Daryolari, ko‘llari, botqoqliklari, grunt suvlari. Kanallari, suv omborlari. O‘simlik qoplami. Tuproqlari. Hayvonot dunyosi. Provinsiyada ajartilgan tabiiygeografik okruglarga (Qozog‘iston past tog‘lari okrugi, To‘rg‘ay supasimon o‘lkasi, Orol okrugi, Orolbo‘yi qumli cho‘llari. Betpaqdala. Ustyurt.) tabiiy geografik tavsif.

Jung‘oriya-Tyanshan provinsiyasi

Jung‘oriya-Tyanshan provinsiyasining tavsifida keltirilgan tartib asosida Jung‘oriyaTyanshan provinsiyasiga, unda ajratilgan kichik tekislik provinsiyasi tarkibidagi

Balxashbo‘yi-Muyunqum okrugiga, tog‘li provinsiyasidagi Shimoliy Tyanshan, Markaziy Tyanshan, Sharqiy Qozog‘iston tog‘li okrugiga tavsif.

Turon provinsiyasi

Yuqorida qayd qilingan tartib asosida Turon provinsiyasiga, unda ajratilgan tekislik kichik provinsiyasi tarkibidagi O‘zboyorti, Shimoliy Qoraqum, Quyi Zarafshon, G‘arbiy Turkiston, Markaziy Qoraqum, Tajan-Murg‘ob okruglariga, tog‘li kichik provinsiyasida ajratilgan Farg‘ona, Janubiy yosh tog‘lar, Yuqori Zarafshon, Yuqori Amudaryo, Qashqadaryo, O‘rta Sirdaryo, Pomir okruglariga tavsif.

Yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitida (bozor iqtisodiyoti) O‘rta Osiyoni regional tabiiy-geografik o‘rganishdagi asosiy muammolar

IV-qism O‘rta Osiyo iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi

O‘rta Osiyo davlatlarining dunyo siyosiy va iqtisodiy tizimida tutgan o‘rni

O‘rta Osiyo iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi iqtisodiy va sotsial geografiyaning ajralmas tarmog‘i ekanligi. O‘rta Osiyo va Markaziy Osiyo atamalari. O‘rta Osiyo mintaqasi davlatlarining shakllanish tarixi, tabiiy, iqtisodiy geografik o‘rni, chegaralari.

O‘rta Osiyo davlatlarining geosiyosiy va geostrategik holati.

O‘rta Osiyo davlatlarining siyosiy geografik o‘rni va uning mintaqa rivojlanishiga ta’siri. 1990-yillardagi iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlar. O‘rta Osiyo davlatlarining bozor munosabatlariga o‘tishi. Zamonaviy rivojlanishi, o‘zaro munosabatlar va muammolar.

O'rta Osiyoning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslariga iqtisodiy geografik baho berish

O'rta Osiyo davlatlari tabiiy sharoiti va tabiiy resurslarining xilma xilligi, ularga mos holda turlicha xo'jalik faoliyati turlarining shakllanishi.

Iqlim sharoitlari- agroiklim resurslari, suv manbalari, harorat va yog'in miqdorini taqsimlanishining qishloq xo'jaligi va uning tarmoqlarini hududiy tashkil etishga ta'siri.

O'rta Osiyo o'lkasi davlatlari reliefi. Uning qishloq xo'jaligi, qurilish, sanoat korxonalarini joylashtirish va aholini hududiy tashkil etishga ta'siri.

O'lkaning tabiiy resurslari: yer resurslari, qazilma boyliklari, suv resurslari, rekreatsiya va biologik resurslari. Davlatlarning tabiiy-mineral resurs salohiyati, zahiralari Ularning xo'jalik va aholini joylashuviga ta'siri. O'rta Osiyo davlatlarida tabiiy boyliklarning joylashish xususiyatlari va ularning davlatlarning iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishidagi roli.

Aholisi

Mintaqaning demografik salohiyati, uning tarkib topish tarixi, aholining tabiiy ko'payishi, diniy, jinsiy, yosh tarkibi. Milliy tarkibi, uning tarixiy davrlarda o'zgarishi. O'rta Osiyo davlatlari aholisining joylashuv xususiyatlari: tog', cho'l, tekislik, vohalarda aholi zichligining o'zgarishi, shahar va qishloq aholisi, urbanizatsiya, yirik shahar va shahar aglomeratsiyalari, mintaqada urbanizatsiya. Aholi migratsiyasi, uning sabab va oqibatlari. O'rta Osiyoda mehnat resurslari, aholining iqtisodiyot tarmoqlarida bandligi. Demografik muammolarni kelib chiqish sabablari, ularni hal etishga davlatlarning e'tibori, olib borilayotgan chora-tadbirlar va islohotlar haqida ma'lumot.

Xo'jaligining umumiy ta'rifi

